



## KARTOSHKANING FENOLOGIK XUSUSIYATLARI

<sup>1</sup>Nazokat Rustamboyeva

Magistr, Urganch davlat universiteti,

<sup>2</sup>Allashukurov Sherjan

O'qituvchi, Urganch davlat universiteti,

<sup>3</sup>Razzakov Qahramon

b.f.f.d Urganch davlat universiteti, Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7572576>

### ARTICLE INFO

Received: 17<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 25<sup>th</sup> January 2023

Online: 26<sup>th</sup> January 2023

### KEY WORDS

*O'simlik, nav, fenologik xususiyatlari, unib chiqishi, pishshi, guli, rezovor mevasi, bargi, poyasi, tupi, tunganagi va o'simalari.*

### ABSTRACT

*Maqolada kartoshkaning fenologik xususiyatlari, o'simlikning dala sharoitida urug' unuvchanligi, ontogenez bosqichlari to'g'risida ma'lumotlar keltirigan.*

Kartoshka – oziq ovqat, yem - xashak va texnik ahamiyatga ega universal ekindir. U dunyo dehqonchiligida maydoni bo'yicha bug'doy, sholi, makkajo'xoridan keyingi o'rinda, ahamiyati jihatdan esa ikkinchi o'rinda turadi. Shuni uchun haqqli ravishda ikkinchi non deb yuritiladi. Tugunak biokimyoviy tarkibi 75 % suv va 25 % quruq moddadan iborat. Quruq moddaning 70 - 80 % i kraxmal bo'lib, tugunakda uning miqdori 13- 20 %, oqsil- 2-3 %, klechatka- 1 %, moy- 0,2- 0,3 %, shakar- 1 %, kul 0,8 - 1,0 % ni tashkil etadi.

Respublikamizda kartoshkachilik asosan nisbatan salqin, chirindiga boy, er osti sizot suvlari yuza joylashgan tuproqlarda yoki tog'li hamda tog' oldi hududlarda joylashtirilgan. Chunki, kartoshka kelib chiqishiga ko'ra, baland tog'li mintaqalar o'simligi. Bunday joylarda tuproq va iqlim sharoiti kartoshkaning o'sishi va rivojlanishi uchun nihoyatda qulay bo'lib, yoz oylarida o'rtacha harorat tekisliklarga qaraganda 8 -10 C gacha past va namlik yuqori bo'ladi. Kartoshka ekinining agrotexnik va agroiqtisodiy ahamiyati ham katta. Chunki, chopiq talab ekin bo'lgani uchun u etishtirilgan dala tuprog'li yumshoq va begona o'tlardan tozalanib, ko'plab boshoqli va dukkakli don ekinlari uchun yaxshi o'tmishdosh hisoblanadi. Ko'pchilik mamlakatlarda shudgorni band qiluvchi ekin sifatida o'stiriladi.



O'simlik unib chiqqandan to hosili pishguncha bo'lgan davr o'suv davri davomiyligi yoki vegetasiya davri deyiladi. Har bir ekinning biologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fenologik fazalari belgilanadi. Kartoshka ekinida quyidagi rivojlanish fazalari mavjud va bu fazalar davomiyligi navlar bo'yicha quyidagicha davom etishi mumkin:

1. Ekish-unib chiqish fazasi (16-25 kun).
2. Unib chiqish-shonalash fazasi (22-26 kun).
3. Shonalash-gullash fazasi (11-16 kun).
4. Gullash-palak sarg'ayish fazasi (35-45 kun).

Kartoshka navlari o'suv davri davomiyligi bo'yicha quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Ertapishar navlar (65-70 kun).
2. O'rtaertapishar navlar (70-80 kun).
3. O'rtapishar (80-100 kun).
4. O'rta kechpishar (100-120 kun).
5. Kechpishar navlar (120-150 kun).


**Kartoshkaning guli****Rezavor mevasi****Botanik urug'i**

Kartoshkaning asosiy nav belgilari, guli, bargi, poyasi, tupi, tunganagi va o'simtalaridir. Davlat nav sinashiga topshirilayotgan kartoshkaning yangi navlari 18 ta xo'jalik - biologik, tunganakning 9 ta, tupining 3 ta, bargining 16 ta, gulining 10 ta belgisi bo'yicha to'liq ta'rif aks ettirilmog'i lozim. Guli-shingil bo'lib uning shakli gulbandi uzunligi va ranglanishi, gulining g'uj, sochma bo'lishibilan farqlanadi. Gulbandi uzun va qisqa, ingichka yoki yo'g'on bo'lishi mumkin. Rezavor meva hosil qilishi (ko'p, yirik, mayda) bilan farqlanadi. Shona-shakli tuplanganligi va ranglanganligi. Shona yumaloq, oval yoki uzunchoq shakllarda, kuchsiz yoki kuchli tuklangan yoki tuklanmagan bo'ladi. Ranglanishi tunganakning yoppasiga, faqat yuqori qismida va tashqi ko'rinadigan qismida bo'lishi bilan farqalanadi. Guli gulkosa, gultoj, urug'chi va changchidan tashkil topgan. Gulkosaning rangi, tukliligi, shakli navning harakterli belgisidir. Gulkosa ranglanishi bo'yicha yashil, qisman va to'liq ranglangan kuchli va kuchsiz tuklangan, uning barg uchlari bigizsimon va bargsimon bo'ladi. Gultoj-ning tuzilishi, rangi va kattaligi navga xos belgi hisoblanadi. Gultoj rangi oq, qizil, binafsha, ko'k binafsha, ko'k va boshqa rangda bo'ladi. Kartoshka gulida 5 ta changchi bo'lib, rangi sariq, och-sariq, sarg'ish-yashil va to'q sariq, shakli to'g'ri, konussimon silindr yoki noksimon, yirikligi bo'yicha katta va mayda changchili gullarga bo'linadi.

Urug'chi tuguncha, naycha va tumshuqchadan tashkil topgan. Urug'chi tumshuqchasi shakli va rangi bo'yicha kartoshka navlari bir biridan keskin farqlanadi. Tuguncha oval, noksimon va oraliq holatda bo'ladi. Uchining rangi tunganakning rangi bilan to'g'ri bog'lanishda, ya'ni tuguncha rangsiz bo'lsa, tunganak oq rangda bo'ladi. Bargi kartoshkaning muxim nav belgisi hisoblanadi. U chuqur kesilgan toqpat-simon bo'lib, barg bandi, o'qi, unda joylashgan oxirgi (uchki) bo'lak 3-7 juft yon barglar va ular orasida joylashgan oraliq bo'lakchalardan tashkil topgan. Barg bo'laklari yirikligi va shakli e'tiborga olinadi. Oxirgi (uchki) barg bo'lagi asosining shakli yuraksimon, ponasimon va oraliq ko'rinishda bo'lishi ham nav belgisi hisoblanadi. Kartoshkada birinchi juft yon bo'laklari plastinkasi enining bo'yiga nisbati (barg indeksi) bo'yicha farqlanadi. Barg bo'lakchalarining yirikligi, shakli, joylashishi bo'yicha navlar bir-biridan farq qiladi. Bargning kesilganlik darajasi ya'ni bo'lak va bo'lakchalari

qancha ko'p bo'lsa kuchli kesilgan, aksincha kam bo'lsa kuchsiz kesilgan, o'ta zich joylashgan bo'lsa zich barglangan deyiladi. Barg rangi och, to'q yashil bo'ladi. Poyasining soni, qirraliligi, balandligi, shoxlanishi va ranglanganligi bilan harakterlanadi. Poya soni bo'yicha ko'p va kam poyali, uch va ko'p qirrali, shoxlanmaydigan, kuchsiz o'rtacha va kuchli shoxlanuvchan poyali navlar bo'ladi. Kartoshka tupi barglanganligiga qarab, kuchli, o'rtacha, kuchsiz barglangan bo'ladi. Ko'rinishi bo'yicha uyumli, yarimtarqoq va tarqoq (sochma) tupli shaklga ega. Tuganak eng muxim nav belgilaridan biri bo'lib, rangi, shakli po'stining xarakteri, ko'zchalar soni, chuqurligi, mag'zining rangi kabilar bilan ta'riflanadi. Tuganak rangi oq, qizil, binafsha, ko'k binafsha, och qizil, dog'li, shakli yumaloq, oval, uzunchoq, tuxumsimon, yumaloq oval, uzun oval kabi shakllarda bo'ladi. Tuganak po'sti silliq to'rsimon, mag'zi esa oq, sariq, oq sarg'ish rangda bo'ladi. Ko'zchalar sonining ko'p - kamligi ham nav belgisi hisoblanadi.

Tuganaklarning uyada joylashish xarakteri- stolonlar uzunligiga qarab uyada g'uj, tarqoq joylashadi. Bu esa muhim nav belgisi bo'lib, u navning mexanizatsiyaga moslashganligini bildiradi.



**1 rasm. Kartoshkaning tuzilishi**

### References:

1. [https://library.samdu.uz/files/8d3b98e1e0d8db613cb64e5ad9f4f530\\_KARTOSHKKA%20S ELEKSIYASI%20VA%20URUG%CA%BBCHILIGI.pdf](https://library.samdu.uz/files/8d3b98e1e0d8db613cb64e5ad9f4f530_KARTOSHKKA%20S ELEKSIYASI%20VA%20URUG%CA%BBCHILIGI.pdf)
2. Rajabov T.YA., Omonov N.S. Istiqbolli Qarshi-9 kartoshka yetishtirish parvarishlash texnologiyasi. Toshkent. - 2003. - 108-111s.
3. Vavilov. P.P. O'simlikshunoslikdarsligi. - Toshkent: O'qituvchi,1980.
4. Satipov G.M. O'simlikshunoslik darsligi. -Toshkent: Mehnat, 1991. -116- 180b.
5. Satipov G.M. Xorazm vohasida ekilayotgan yangi va istiqbolli g'o'za navlarining agrotexnikasi. Metodik qo'llanma. Urganch, 1995. 12s.
6. SatipovG.M. Istiqbollikartoshkanavlarininghosildorligi.// O'zbekiston qishloq xo'jaligi j . - 1997a . - №2. - 32b.